

## O'zbekistonda ilk bor "O'zbek tilida notiqlik san'ati" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi

O'zbekistonda ilk bor xorijiy davlat fuqarolari bo'lgan talabalar o'rtasida joriy yilning 15 oktyabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida tashkil etilgan "O'zbek tilida notiqlik san'ati" ko'rik-tanlovida ishtirok etgan institutimiz xorijiy talabasi Karter Xoll (AQSh) 1-o'rinni egalladi. Ushbu quvonchli xabar bilan institutimiz jamoasini tabriklaymiz. G'alabalarimiz hamisha bardavom bo'lsin!



**TIQXMMI matbuot xizmati**